**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**PEDAGOGIKA KAFEDRASI**

5141600 – Boshlang’ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ishi ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavr darajasini olish uchun

**“**Tarbiya tizimida umuminsoniy qadriyatlarning roli**” mavzusida bajarilgan**

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI


Bajaruvchi**:** **Qo’chqorova Feruza**

**Ilmiy rahbar:** **prof. Hasanboyev J.**


Ishni himoyaga tavsiya yetaman: **prof. Hasanboyev J.______**

**Kafedra mudiri:** P.f.n. dosent **Kushvaktov N.X** ___________

(Ismi va sharifi) (imzo)

**Jizzax - 2011**

| | | |
|---|---|---|
| | KIRISH…………………………………………………………….................. | 3 |
| I BOB | **BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARIGA MILLIY- MA’NAVIY QADRIYaTLARNI O’RGATIShNING NAZARIY ASOSLARI…………** | 7 |
| 1.1. | **Tarbiya tizimining ijtimoiy asoslari …………….** | 7 |
| 1.2. | **Tarbiya tizimini shakllantirishda buyuk siymolar roli………………………………………………………..** | 18 |
| II B OB | **BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARIGA MUMINSONIY QADRIYATLARNI SINGDIRISH TEXNOLOGIYASI……………………….........................** | 30 |
| 2.1. | **Boshlang’ich ta’lim tizimida umminsoniy qadriyatlardan foydalanish..............** | 30 |
| 2.2. | **Boshlang’ich sinf o’quvchilarini tarbiyalashda umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish tyexnologiyasi…....................……………………………** | 38 |
| | **UMUMIY XULOSA…………………..................................................** | 49 |
| | **ADABIYOTLAR RO’YHATI ..............................................** | 50 |

# K I R I SH

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi.** Har qanday jamiyatning ravnaq topishi, rivojlanishi bizga ma’lumki shu jamiyatning o’sib, ulg’ayib kyelayotgan o’qimishli yigit-qizlarga bog’liq. Bugungi kunda yoshlarni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Bunday vazifani amalga oshirish uchun o’z Vataniga, xalqiga, istiqlol g’oyalariga sadoqatli, erkin va mustaqil fikrlaydigan ijodkor shaxsni shakllantirish talab etiladi. Shuning uchun ham bugungi kunda umumta’lim maktablarida boshlang’ich sinf o’quvchilari faoliyatiga katta e’tibor byerilayapti. Bu o’z navbatida ta’lim tizimidagi tub islohotlar orqali shaxs ma’naviy kamolotini ta’minlash boshlang’ich sinf o’quvchilariga qanday va qay tarzda amalga oshirilishi umumta’lim maktablari oldida turgan dolzarb muammolaridan biri bo’lib, bu haqda O’zbyekiston Ryespublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashda ota bobolarimiz tomonidan amalga oshirilgan ta’lim-tarbiya tizimiga e’tibor qaratilishi lozimligi ta’kidlangan[1,2,3,4].

Boshlang’ich sinf o’quvchilarini har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashda umuminsoniy qadriyatlarning o’rni byeqiyosdir. Umuminsoniy qadriyatlar inson o’z ongini tanigan kundan boshlab tarkib topgan va insoniyatning faoliyati jarayonlarida takomillashib, rivojlanib kyelgan. Shunday ekan bunday ulug’ qadriyatlardan foydalangan holda boshlang’ich sinf o’quvchilarini ertangi kunning faol shaxslarini tarbiyalash nazarda tutiladi. Ota-bobolarimiz o’z farzandlarini oqil, adolatli, dustparvar, Vatanni syevguvchi inson qilib tarbiyalashda ibrat namuna tizimidan kyeng foydalangan. Bunda yaxshi insonlarni ibrat qilib ko’rsatish orqali u ham bir kuni shu insonday bo’lishi uchun nimalarga rioya qilishi, nimalarda vos kyechishu nimalarga intilib yashashi zarurligi uqtirilgan. Ana shuning hammasini inobatga olgan holda bugungi kunda bizlar ham o’sib ulg’ayib kyelayotgan yosh avlodga to’g’ri yo’lni ko’rsatishimiz lozim. Bizga ma’lumki fan va tyexnikaning rivojlanishi kishilik faoliyatiga bir qator qulayliklar yaratish bilan bir qator muammolarni ham yuzaga kyeltiradi. Ya’ni, axborot ko’lamining boyib borishi va undan foydalanish imkoniyatining kyengayib borishi axborot va tyelyekomunikasiya vositalarining takomillashishi va

rivojlanishiga bog'liqdir. Shuning uchun ham bunday imkoniyatlardan to'g'ri va oqilona foydalanish bugungi kunning talablaridan biridir. Shuning uchun ham bugungi kunda ryespublikamizning barcha tarmoqlarini axborotlashtirish va uni takomillashtirish bo'yicha ko'plab qonunlar, myeyoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilmoqda. Jumladan:

- O'zbyekiston Ryespublikasi Pryezidyenti 2002 yil 30 maydagi "Kompyutyerlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot tyexnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi PF-3080 sonli farmoniga binoan;

- O'zbyekiston Ryespublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyunidagi "Kompyutyerlashtirish va axborot komunikasiyasi tyexnologiyalarini joriy etish chora tadbirlari to'g'risida" gi 200-sonli qarori;

- O'zbyekiston Ryespublikasi Vazirlar Mahkamasi 2003 yil 11 dyekabrda qabul qilingan "axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni;

- O'zbyekiston Ryespublikasi Pryezidyenti 2005 yil 8-iyuldagi "Axborot komunikasiya tyexnologiyalarini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 117-sonli qarori;

- Xalq Ta'lim Vazirligi tomonidan 2004 yil 12 oktyabrda qabul qilingan "ta'lim muassasalarini yagona axborot makoniga aylantirish, intyegrasiyani chuqurlashtirishni hisobga olgan holda zamonaviy maktabni jihozlash konsyepsiyasi";

- O'zbyekiston Ryespublikasi Osiyo taraqqiyoti banki bilan hamkorlikda amalga oshirayotgan "Ta'lim syektorini rivojlantirish dasturi" hamda "Umumta'lim maktablariga axborot komunikasiya tyexnologiyalarini joriy etish" loyihalari;

- O'zbyekiston Ryespublikasi Vazirligining 2006 yil 3 avgustdagi 2006-2007 o'quv yilini "Axborot komunikasiya tyexnologiyalari kadrlar salohiyatini oshirish o'quv yili" dyeb nomlash to'g'risidagi 6G'5-sonli buyruqlari.

Yuqorida qayd etilgan qarorlarda, konsyepsiya, loyihalarda yoshlarning intyelyektual salohiyatini oshirish va ular orqali ta'lim-tarbiyani tubdan isloh qilishga qaratilgan fikrlar o'z aksini topgan. Bu esa barkamol avlod tarbiyasidagi muhim omillardan biri bo'lib, u orqali pyedagogik tizim takomillashtiriladi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarini o’qimishli shaxslar qilib voyaga yetkazishda tarbiya muhim omil bo’lib xizmat qiladi. Hurmatli davlatimiz rahbari I.A. Karimov aytganlaridyek, «Buyuk davlat, buyuk kyelajagimizga erishish uchun oqil, ma’rifatli, ayni paytda o’zining o’tmishi, ulug’ qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan va kyelajakka ishonadigan insonlarni tarbiyalashimiz kyerak» [5,6].

Bu, o’z navbatida ta’lim tizimi oldiga, o’quvchilarni har tomonlama kamol topgan shaxs qilib tarbiyalash vazifasini qo’yadi. Uni amalga oshirishda biz buyuk bobolarimiz tomonida yaratilgan asarlar, hikmatlar va ibratli turmush tarzi xizmat qiladi. Shuning uchun ham boshlang’ich sinf o’quvchilarini insoniy fazilatlarga boy shaxs qilib tarbiyalashda xalq pyedagogikasi va milliy-ma’naviy qadriyatlarimizning asoschilari. Imom al- Buxoriy, Xo’ja Bahouiddin Naqshband, At-Tyermiziy, Ahmad Yassaviy, Abu Mansur al-Moturudiy, Zamaxshariy, Yusuf Hamodoniy, Najmiddin Kubro, qomusiy olimlar: al-Xorazmiy, al- Byeruniy, Abu Ali Ibn Sino, Umar Xayyom, Mirzo Ulug’byek, Ali Qushchi, yozuvchi va shoirlar: Alishyer Navoiy, Aburahmon Jomiy, Bobur, Lutfiy, Sakkokiy, Boborahim Mashrab, davlat arboblari: Amir Tyemur, Mirzo Ulug’byek, Xusayn Bayqaro, jadidchilar: Munavvar qori (Abdurashidxonov), Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Mahmudxo’ja Byehbudiy, Abduqodir Shakuriy, Hamza, Saidrasul Saidazizov kabi bir qancha ulug’ allomalarimizdan qolgan boy ma’naviy myerosidan foydalanish yo’lga qo’yildi [13,15,16].

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi:** boshlang’ich sinf o’quvchilarini umuminsoniy qadriyatlarni o’rgatish va unga mos tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishi maqsadini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar hal etildi:

- boshlang’ich sinf o’quvchilarini umuminsoniy qadriyatlarga oid bilimlar bilan qurollantirish.

- boshlang’ich sinf o’quvchilarini umuminsoniy qadriyatlarni axborot tyexnologiyalari asosida o’rgatishning mazmuni, myetodlari va pyedagogik shart-sharoitlarini byelgilash.

**Bitiruv malakaviy ishining obyekti:** boshlang'ich sinf o'quvchilariga umuminsoniy qadriyatlarni o'rgatishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni.

**Bitiruv malakaviy ishining pryedmyeti:** boshlang'ich sinf o'quvchilariga umuminsoniy qadriyatlarni o'rgatishning mazmuni, shakli, myetodlari, pyedagogik shart-sharoitlari.

**Bitiruv malakaviy ishining myetodlari:** pyedagogik tahlil, kuzatish, ankyeta, savol-javob, suhbat.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi**: kirish, 2 bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## I BOB. **BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA MILLIY-MA'NAVIY QADRIYaTLARNI O'RGATIShNING NAZARIY ASOSLARI**

### 1.1. Tarbiya tizimining ijtimoiy asoslari.

Qadimdan ota-bobolarimiz yosh avlod taqdiri bilan qiziqib kyelishgan. O'sib voyaga yetib kyelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash vositalarini o'ylab topganlar. Ulardan biri ertakdir. Ertak haqiqatdan ham bolalarni o'ziga ryeal qilib, ta'sir etish kuchiga ega.

**Ertak** – xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmaga asoslangan sehirli sarguzasht va maishiy harakterdagi epik badiiy asar. Asosan nasr janrda yaratilgan. M.Qashqariyning "Devonu lug'ati turk" asarida etuk shaklida uchraydi va biror voqeani og'zaki tarzda hikoya qilish ma'nosini bildiradi. Ertak Surxandaryo, Samarqand o'zbeklari orasida matal, Buxoro atrofidagi tuman va qishloqlarda ushuk, Xorazimda Varsaqi, Toshkent shahri va uning atrofida cho'pchak deb ataladi. Ertak hayot haqiqatining hayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning ajoyib-g'aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g'ayritabiiy jasorati bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi. Ertaklarda uydirma muhim mezon bo'lib, syujet voqealarining asosini tashkil etadi, syujet chizig'idagi dinamik harakatning konflikt yechimini ta'minlaydi. Uydirmalarning turli xil namunalari ta'limiy-estetik funksiyani bajaradi, janr komponenti sifatida o'ziga xos badiiy tasvir vositasi bo'lib xizmat qiladi. Uydirmalar voqea va hodisalarni hayotda bo'lishi mumkin bo'lmagan yoki mavjud bo'lgan hodisalar tarzda tasvirlaydi. Hayoliy va hayotiy uydirmalarning ishtiroki, syujet chizig'ida tutgan o'rni va vazifasiga ko'ra ertakni 2 guruhga – hayoliy uydirmalar asos bo'lgan ertak, hayotiy uydirmalar asos bo'lgan ertaklarga bo'lish mumkin. Hayoliy uydirmalar asosidagi ertak syujeti mo'jizali, sehrli; hayotiy uydirmalarga asoslangan ertak syujeti esa hayotiy tarzda yuo'lib, unda real voqea-hodisalar tasvirlanadi. Ertaklarda, asosan, uch maqsad hikoya qilinadi. Birinchisida ideal qahramonning jasorati,

yovuz kuchlarga qarshi chiqib, xalq manfaatini himoya qilishi, ikkinchisida, asosan, bosh qahramonning o’zga yurt malikalariga yoki parizodlariga oshiq bo’lib uylanishi, kasalga dori topishi, ajdar va devlar olib qochgan kishilarni ozod qilishi, uchinchisida esa adolatsizlikka, zulmga qarshi chiqishi kabi maqsadlar bayon qilinadi. Birinchi maqsad pahlavonning faol harakati va g’ayritabiiy kuch-qudrati bilan amalga oshsa, ikkinchi maqsadi passiv qahramonga yordam beruvchi tilsim vositalari yordamida, uchinchi maqsad esa bosh qahramonning aql-idroki, tadbirkorligi bilan amalga oshadi.

Ertak janri obrazlar talqini, g’oyaviy mazmuni va konflekti, syujet va kompozitsiyasi, uydirmalarning o’rni va vazifasi, tili va uslubiga ko’ra, shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, maishiy ertaklar, hajviy ertaklarga bo’linadi.

Yuqorida ertaklar to’g’risida batafsil to’xtalib o’tdik. Shubxasiz ular yosh avlod tarbiyasida o’ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Qadimgi yozma manbalardan biri hisoblangan “Avyesto” da yoshlar tarbiyasini alohida urg’u byerilgan.

**Avyesto** – «Avyesto» (asli «Ovasto») so’zi «Ogohnoma», «Donishnoma» dyegan ma’nolarni ifodalaydi. «Avyesto» zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanib, o’z davrida o’sha paytlarda bu dinga e’tiqod qiluvchilar uchun muqaddas kitob sanalgan va unga bir nyecha ming yillar davomida ixlos bilan amal qilib kyelganlar.[17]

Hozir esa bu kitob ajdodlarimiz madaniyati va ma’naviy qadriyatlaridan darak byeruvchi, jahon tamadduniga (sivilizasiyasiga) muhim hissa qo’shgan, olamshumul ahamiyatga ega bo’lgan ona yurtimizning eng qadimgi, eng mo’tabar, eng nodir, madaniy tarixiy, ma’rifiy yodgorligi sifatida o’rganiladi.

«Avyesto» uzoq davrlar mobaynida – miloddan oldingi 3 ming yillikning oxirlaridan boshlab og’zaki tarzda shakllanib avloddan-avlodga o’tib kyelgan. Muqaddas «Avyesto» ning yozuvlari turli davrlarda yozilgan va bu yozuvlar har xil ijtimoiy muhitning mahsuli bo’lgan. Ularni miloddan avvalgi XII-VIII asrlar orasida Xorazmda tug’ilib o’sgan Zardushtra (Zardusht) bir tizimga solib, o’zi ham

«Avyesto»ning «Gohlar» («Gotlar») qismin yozib kitobat qilgan va «Zardushtiya» diniga asos solgan. Ya’ni Zardusht o’sha davrdagi ko’pxudolik g’oyalari va u g’oya bilan bog’liq bo’lgan urf-odat va diniy marosimlarga qarshi chiqib yakkaxudolik g’oyalarini targ’ib etadi.

Abu Rayhon Byeruniy ham Zardushtrani insoniyatni ko’pxudolik (polyetyeizm)dan yakka xudolik (monotiyezm)ga targ’ib etgan ilk payg’ambarlardan biri bo’lgan, dyeb ta’riflagan.

Ko’pxudolik bilan bog’liq bo’lgan dahshatli odatlardan biri insonlarni qurbonlikka so’yish bo’lgan. Tarixning ana shunday chirkin, dahshatli davrlarida insoniyat xaloskori sifatida vatanimiz va millatimiz iftixori bo’lmish Zardusht mardlarcha maydonga chiqdi. Zardusht insoniyat hayoti uchun g’oyat zararli bo’lgan ko’pxudolik e’tiqodlarining g’ayriinsoniy mohiyatini chuqur anglab yetdi va o’z bilimlarini yakkayu yagona Oliy tangri – Ahura Mazda (Xurmuzd) vahiylari bilan boyitib, insoniyat ongi va mafkurasida inqilob yasab, o’tmishning bunday dahshatli chirkin sarqitlariga bolta urub chil-parchin qilib tashladi va kishilik jamiyatining ma’naviy taraqqiyotini yangi yo’nalishga soldi.

Uning ta’limoti, siymosi, nomi bilan ataladigan «Zardushtiylik» dini insonlarga asrlar bo’yi ma’naviy madad, ruhiy oziq bo’lib xizmat qildi. «Avyesto» dagi alqov qo’shiqlari, sanolar bashariyat tomonidan uzoq-uzoq yillar mobaynida qiroat bilan kuylab kyelindi va insonlarda kyelajakka umid, yaxshilik, ezgulik, mardlik, qahramonlik, pokizalik, rostgo’ylik tuyg’ularini tarbiyalaydi, yovuzlikka nisbatan esa nafrat hissini uyg’otishga xizmat qildi va mamlakatlar bo’ylab kyeng tarqaldi. Jumladan, qadimgi Parfiya, Baqtyeriya, So’g’diyona, Parkana, Ozarbayjon, Eron, Xuroson, Iroq, Mug’ilistondan tortib to Suriya, Xitoy, Shimoliy Hindiston, Rum, Habashiston va boshqa mamlakatlarga tarqalgan.

Abu Rayhon Byeruniyning yozishicha, Iskandar Zulqarnayn mil. avv. 330-yilda ahamoniylar impyeriyasini mag’lub etgach, insonlarni xaniflikka, yakkaxudolikka targ’ib qilib, otashxonalarni vayron etgan. Olimlarga «Avyesto»dagi tibbiyot, falsafa va ilmi nujumga doir o’rinlarini tarjima qilib qoldirib, qolgan ko’pxudolik qismini yoqib yuborishni buyurgan.

O’tmishda «Avyesto» va Zardushtning vatani qayerda bo’lganligi to’g’risida olimlar o’rtasida bahs-munozaralar bo’lib o’tgan. Pirovardida o’ttizdan oshiq chyet ellik mashhur avyestoshunos olimlar va o’zimizning qadimshunos, tarixchi, avyestoshunos tadqiqotchi olimlarimiz «Avyesto» va Zardushtiylik dinining asoschisi Zardushtning vatani **O’zbyekiston, Xorazm** dyeb qat’iy bir to’xtamga kyelganlar. Olimlarning bunday yakdillik bilan chiqargan xulosalarini BMTning maorif va madaniyat bo’limi – YuNESKO ham tasdiqlagan. [19,22]

Ushbu fikrni o’z o’rnida yurtboshimiz ham ta’kidlab o’tganlar: «Avyesto eng mo’tabar, qadimiy qo’lyozmamiz… Bu nodir kitob bundan 30 asr muqaddam ikki daryo oralig’ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma’naviy, tarixiy myerosidir» [6]

Unda shubhasiz yoshlarni jismoniy baquvvat, jasur qilib tayyorlash yurt farovonligi uchun kyerakligi qayd qilingan.

**Jasurlik** – har qanday foliyat jarayonida, mayli, u myehnat jarayoni, jangu jadal yoki boshqa ezgu niyatlarni amalga oshirishi jarayonida bo’lsin, kishi bir qator qiyinchiliklar, to’siqlar, goho xavf-hatarlarga uchraydi. Shunda ularning qo’rqmay o’z yo’lida maqsadi tomon mardonavor harakat qiluvchi odam jasur hisoblanadi. Bu fazilat boshqalarda zavq uyg’otishi bilan birgalikda, har qanday faoliyatni yakuniga yetkazishning asosiy omili hamdir va eng asosiysi, kishida jasurlik bo’lmasa boshqa barcha fazilatlar dyeyarli ish byermaydi va ijtimoiy muhit holatiga ijobiy ta’sir ko’rsatmaydi.

**Jismoniy madaniyat** – bu insonning barcha tabiiy va ijtimoiy qobiliyatlarini ro’yobga chiqaruvchi, uni tobora insoniylashtirib, ham jismoniy, ham ma’naviy chiniqtirib, yuksaltirib boruvchi jarayondir.

**Jismoniy tarbiya –**ta’lim oluvchilarda o’z sog’liklarini saqlash va mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy jahatdan to’g’ri rivojlanishini hamda uning ishlash qobiliyatini oshirish borasida g’amxo’rlik qilish to’yg’usini yuzaga kyeltirish, ularda yangi harakat turlari borasida ko’nikma va malakalarni hosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan

qurollantirish, ta’lim oluvchilarning yoshiga va jinsiga muvofiq kyeladigan (kuch, tyezkorlik, chaqqonlik, sabot-matonat, chidam, iroda va tavsifni qaror toptirish) asosiy harakatlar sifatlarini rivojlantirish, ularda shaxsiy gigiyenani saqlashga nisbatan ongli munosabatlarni tarbiyalashdir.

Yoshlar tarbiyasida yuqorida qayd qilib o’tilgandyek jasurlik o’ziga xos ahamiyat kasb etadi. Jasur bo’lib voyaga yetishi uchun insonning irodasi baqquvat, iymon-e’tiqodi but bo’lishi kyerak.

**Imon (**arab. ishonch, e’tiqod**)** – islomning byesh rukni (asos)dan biri; Allohga, uning farishtalariga, kitoblariga, payg’ambarlariga, qiyomat kuniga, taqdirga va o’lgandan kyeyin tirilishiga ishonish. Hozirgi kunda imon so’zi vijdolilik, halollik, soflik, Vatanni syevish ma’nolarida ham ishlatiladi. [] 26

**Imon –** Allohning borligiga, uning sifatlariga, payg’ambarlariga, qiyomat kuniga, yaxshilik va yomonlik Alloh subhonahu va Taoloning o’zidan bo’lishiga dinda ko’rsatilgan ishonch ma’nosini bildiradi. Imonli kishi mo’min dyeyiladi. Mo’min, ya’ni imon kyeltirgan, ishongan odamdir. Imon qalbning duri bo’lib, kishini e’tiqodga, yaxshilikka, ezgulikka, halol va pok bo’lishga undaydi.

**E’tiqod** – shaxsning o’z qarashlari, taomyillari va dunyoqarashiga mos ravishda harakat qilishga undovchi anglanilgan ehtiyojlar sistyemasidir.

**E’tiqod erkinligi** – kishi ongida chuqur o’rnashib qolgan va amalga oshirilishi shaxsning kundalik ehtiyojiga aylangan intilish, xatti-harakat va dunyoqarashlar tizimi.

Darhaqiqat yosh avlod tarbiyasida jamiki insoniyat qayg’urib yashaydi. Ularni har tomonlama tarbiya topgan inson bo’lishini istashadi. Bu o’z navbatida umuminsoniy qadriyat hisoblanadi.

**Qadriyat** – tyevarak-atrofdagi narsalarning, kishining jamiyat uchun ijobiy yoki salbiy ahamiyatini ko’rsatuvchi tushuncha bo’lib, axloqiy tamoyillar, g’oyalar, yo’l-yo’riqlar va maqsadlarda ifodalangan ana shu tushunchaga baho byerish myezoni va usullari hisoblanadi.

Qadriyatga umuminsoniy qadriyatlar – ma’lum bir axloq mye’yorlari, ilg’or, taraqqiyparvar madaniy myeroslar kiradi.

Qadriyatlar moddiy, ijtimoiy, siyosiy, ma’navi qadriyatlarga hamda ijobiy va salbiy qadriyatlarga bo’linadi [23]

**Qadriyat** – qadr-qimmat ma’nosini anglatib, inson uchun qadrli bo’lgan barcha narsa va hodisalar (pryedmyet va jarayonlar) majmuidir.

**Qadriyat –** voqyelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy axloqiy, ma’daniy –ma’naviy ahamiyatini ko’rsatish uchun qo’llaniladigan tushuncha. [24,25]

Qadriyat katyegoriyasi faqat buyum va narsalarning iqtisodiy qiymatini emas, jamiyat va inson uchun biror ahamiyatga ega bo’lgan voqyelikning shakllarini, narsalar, voqyea hodisalar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladi.

Qadriyatlar ishlab chiqarish sohasidagi faoliyat, insonlar o’rtasidagi munosabatlar uchun foyda kyeltiradigan narsalar majmuasi sifatida yuzaga kyelib, ayrim kishilar ijtimoiy guruhlar harakatini tartibga soladigan ma’naviy hodisaga aylanadi.

Muayyan bir elat, milat, xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, an’analari o’tmishi va kyelajagi bilan bog’liq qadriyatlar milliy qadriyatlar hisoblanadi.

**Qadriyatlar** faqat o’tmish uchun qadrli bo’lmasdan, balki hozirda ham kyelajak taraqqiyotida ham qadrli bo’lib, ular jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir qiladi hamda kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma’naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy va h.k.lar majmui tushuniladi.

Qadriyat turlari quyidagilar:

- tabiiy qadriyatlar;
- moddiy qadriyatlar;
- ma’naviy qadriyatlar;
- estyetik qadriyatlar;
- milliy qadriyatlar;
- umuminsoniy qadriyatlar.

Bular o’z navbatida shajaraviy xususiyatga ega.

*Tabiiy qadriyatlar* – insonning yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo’lgan ryesurslar, ya’ni yer va yer osti boyliklari, suv, havo, o’rmonlar, o’simliklar, hayvonot dunyosi va boshqalar.

*Moddiy qadriyatlar* – insonlarning moddiy ehtiyojlarini qondirishda qadrli bo’lgan narsa (pryedmyet, buyum)lardir. Ular: ishlab chiqarish vositalari va qurollari, myehnat pryedmyetlari, moddiy nye’matlar, kishi faoliyati jarayonini amalga oshirishdagi buyumlar.

*Ma’naviy qadriyatlar* – siyosiy, huquqiy, badiiy, diniy, estyetik, falsafiy, axloqiy, ma’rifiy, madaniy qadriyatlar majmuasidir.

*Estyetik qadriyatlar* – barcha ham shaklan, ham mazmunan go’zalliklardir (barcha tabiiy va ijtimoiy go’zalliklar).

*Milliy qadriyatlar* – muayyan xalq va millatlarning uzoq tarixiy davrlar asosida rivojlanib kyelgan va ma’lum shakl va mazmunga ega bo’lgan moddiy va ma’naviy boyliklar majmuasidir.

***Umuminsoniy qadriyatlar*** – umumbashariy ahamiyatga ega bo’lgan va uning sivilizasiyasi bilan bog’liq bo’lgan moddiy va ma’naviy qadriyatlar majmuasidir. Umuminsoniy qadriyatlarning **asosini** kurrai zamindagi ilm-fanni taraqqiy ettirish, dunyo bo’yicha tinchlik va barqarorlikni saqlash, ekologik muammolar yechimini izlash, yadroviy qurollar poygasini to’xtatish, turli xalqaro xavflarni oldini olish, turli kasalliklarning oldini olish, tabiatni muhofaza qilish, qashshoqlik va savodsizlikka barham byerish, sanoat xom ashyosi, enyergiya manbalarini yaxshilash, koinot va jahon okyeani ryesurslarini o’zlashtirish va shu kabilar bilan bog’liq bo’lgan muammolar tashkil etadi.

Har bir yoshlar tarbiyasida umuminsoniy qadriyatlar o’ziga xos o’rinni egallaydi. Biz yoshlarni ma’naviyatli, madaniyatli qilib voyaga yetkazishimizda albatta umuminsoniy qadriyatlar o’z ta’sirini ko’rsatishi shart. Agar ular bo’lmasa, tarbiya tizimi ishdan chiqadi.

Tarbiya tizimini to’liq yo’lga qo’yishda madaniy va ma’naviy omillar muhim rol o’ynaydi.

**Madaniyat (M).** O’zbyekiston Ryespublikasida mustaqillik yillarida jamiyatni yangilash sohasida olib borilayotgan islohatlar bilan bir qatorda madaniyatni yuksaltirishga ham alohida e’tibor byerildi. Xalqimizning ma’naviyat qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo’lish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirish, muqaddas dinimiz urf-odatlarimizni, ilmiy, madaniy myerosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. «Davlat tili to’g’risida»gi (21.10.1989y.) Qonun, «Kadrlar tayorlash milliy dasturi» (29.08.1997y.) ning qabul qilinishi, O’zbyekiston Badiiy Akadyemiyasi (1997y.), O’zbyekiston davlat konsyervatoriyasi (2002y.), O’zbyek milliy akadyemik drama tyeatri (2002y.), Estrada musiqasini rivojlantirish to’g’risidagi va boshqa bir qancha qaror va farmonlarning qabul qilinishi, bir qancha mutafakkir va allomalarimizning muqaddas nomlari tiklanib, yubilyeylari xalqaro miqiyosda kyeng nishonlanayotgani davlatimiz tomonidan M.ni rivojlantirishga ko’rsatilayotgan g’amxo’rlikning amaliy ifodasidir.[26]

**Madaniyat** – dunyo to’g’risidagi tasavvurlar boyliklari va muayyan turmush tarzining umumiyligi bilan bog’liq bo’lgan odamlar uchun umumiy axloq qoidalari tizimi. Madaniyatni o’zlashtirish, o’rgatish yoki o’qitish yordamida amalga oshiriladi. Shaxsning (axloqiy, siyosiy, kasbiy va hokazo) madaniyati bilimlar, malakalar, ko’nikmalar, axloqiy qobiliyati, axloqiy va estyetik rivojlanish, dunyoqarash, odamlar bilan o’zaro muloqotlarining usullari va shakllari, shaxsiy qobiliyatlarining rivojlanish darajasi kabi faoliyatda amalga oshiriladigan insoniy kuchlar va qobiliyatlarni o’z ichiga oladi.

Shaxsning madaniyat darajasi uning umumlashgan madaniy myerosga erishganligi, o’ziga xos qobiliyatlarning rivojlanish darajasi bilan byelgilanadi.

**Madaniyat** (arabcha «madaniyat» - madinalik, shaharlik, tarbiya ko’rganlik) – «madaniyat» so’zi musulmonlarning aziz tutadigan joyi Madina shahri nomidan kyelib chiqqan, chunki ilk musulmonlar ta’lim – tarbiyani asosan Madinada olganlar.

**Madaniyat** – bu shaxs xulq-atvori, muomalasi va xatti-harakatlarining ma’lum kyetma – kyetlik asosidagi shakllangan tizim.

**Madaniyat** lotincha «cultura» so’zi asosida paydo bo’lgan. Uning ma’nosi «parvarish qilish», «ishlov byerish» ko’rinishlarida ifodalanadi.

**Madaniyat** – arabcha so’zdan olingan bo’lib, u jamiyatni ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy hayotida qo’lga kiritgan yutuqlari majmuidir.

**Madaniyat** – insoniyat faoliyati mahsuli natijasi sifatida, insonlarning moddiy va ma’naviy faoliyatlari jarayonlarida vujudga kyeladi. Olimlarning izohlashicha, madaniyat kyeng ma’noli tushuncha bo’lib, u ijtimoiy amaliyotda va ongda mustahkamlanadigan faoliyatning moddiy – ma’naviy mahsulotlari: ijtimoiy hayot va ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari, kishi holati hamda uning faoliyati turlari yig’indisidan iboratdir.[26]

**Ma’naviyat** (arabcha «ma’naviyat» - ma’nolar majmui) – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui. Ma’naviyat mafkura, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir – birlari bilan bog’liq tushunchalardir. Ma’naviyat – insonning ongi, aqliy qobiliyatini, ruhiy kyechinmalarini yaxshiliklarga, ezgu niyatlarga to’la qalbini ifodalovchi ko’p qirrali tushuncha.

**Ma’naviyat** – kishining ichki, ruhiy, axloqiy qiyofasi tushunchasi bo’lib, ma’lum bir axloq mye’yorlari, maromlari asosida yashash tarzi, umuman hayotdir.

O’rta Osiyo xalqining eng qadimgi «Avyesto» diniy kitobining og’zaki vujudga kyela boshlashi natijasida, ya’ni miloddan 3000 yillar muqaddam shakllanib kyelgan G’arb va jahondagi boshqa mamlakatlarda yashovchi xalqlar ma’naviyatiga zid o’laroq **uyat, andisha, sharm-hayo, ibo, or-nomus, iffat, g’urur, izzat-nafs, qadr, insonparvarlik, muruvvat** kabi axloq mye’yorlariga asoslangan insonning ruhiy, axloqiy qiyofasi bo’lib, shular asosida tashkil topgan urf-odatlar, milliy an’analar va turmush kyechirish tarzi hisoblandi (*Abdurahmonov A.*).

**Odamiylik** – chin (haqiqiy) insonga xos fazilat bo’lib, aql-zakovat myevasidir. Odamiylikning zamirida yaxshilik, sofdillik, odillik, myehr-muhabbat, vafo-sadoqat, oqibat, shafqat, adolatu-sahovat yotadi.

**Odamiylik** – odob mye’yorlaridan biri bo’lib, odamlarga kundalik hayotda insonparvarlik munosabatida bo’lishlikdir. Odamiylik dyeganda o’zida kishilarga nisbatan hurmat, ishonchni his qilish, kamtarlik, to’g’rilik, samimiylik kabi xislatlarni mujassamlashtirishga nisbatan aytiladi. Odamiylik odamlar orasida kamol topadi va ijtimoiy munosabatlarda o’z aksini ko’rsatadi .[27]

**Odob –** insonni ma’naviy kamolotga yetaklovchi jarayondir. Odob bolalikda shakllanadi. Yosh ulg’ayishi bilan insonning odob darajasi kyengayib boradi. U kishi faoliyatini byelgilovchi jarayon bo’lib, uni xatolaridan saqlaydi. Natijada kishining xulqiy go’zalligi ortadi.

**Odob** (arab. adab so’zining ko’pligi) – jamiyatda e’tirof etilgan xulq normasi. Shaxs ma’naviy hayotining tashqi jihatini ifodalaydi va o’zgalar bilan munosabat (oila, myehnat jamoasi, turli marosimlar)da namoyon bo’ladi. Odob nyegizida axloqning ba’zi tamoyil va mye’yorlari, shuningdyek, maqsadga muvofiqlik va go’zallik (estyetika) talablari yotadi. Odob kishining jamoat orasida o’zini qanday tutishi, odamlar bilan qay yo’sinda muomala qilishi, o’z turmushi, bo’sh vaqtini qanday tashkil etishi, inson tashqi qiyofasi qanday bo’lishi lozimligiga tyegishli qoidalar (masalan, sharm-hayo, kamtarlik, xushmuomalalik kabilar)ni o’z ichiga oladi. Odob ta’lim-tarbiya, amaliy tajriba jarayonida shakllanadi. [27]

**Oriyat** – or-nomusdan tashqari izzat-nafs, qadr tuyg’usidir. Odatda oriyatli odamlar o’zlari va oilalarining izzat-nafslarini, qadrlarini yuksak tutadilar, shuningdyek, o’zgalarni ham qadrlay biladilar.[27]

**Sabr** - g’am-kulfat, azob-musibatlarga chidash, toqat qilish, o’z ixtiyori bilan nafsini tiyish; qanoatli bo’lish. Islomda to’g’ri yo’ldan adashmasdan borish uchun kishi o’z mayllarini so’ndirishi lozimligi ta’kidlanadi. Sabrli bo’lish musulmonlarning asosiy fazilatlaridan biri hisoblanadi. Qur’onning bir nyecha oyatlarida musulmonlarning sabrli bo’lishiga da’vat bor.

Hadislarda inson uchun sabrdan yaxshiroq va ulug'roq nye'mat ato etilmagani bayon etilgan. Kishi og'ir paytda bardosh bilan, nye'mat yetganida shukr va yaxshilik bilan sabr qilishi kyerak. (O'zME. T.: 2004, 7-tom, 407-byet).

Dyemak, yoshlarni har tomonlama komil inson qilib voyaga yetkazishda insonning ma'naviy kuch-quvvati muhim omil hisoblanadi. Bu borada biz kyeyingi qismda batafsil to'xtalib o'tamiz.

### 1.2. Tarbiya tizimini shakllantirishda buyuk siymolar roli.

Yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar og'ushida tarbiyalash juda qadimdan yo'lga qo'yilgan. Barcha xalqlar, millatlar, elatlar diniy ravishda bir birlari bilan aloqada bo'lishgan. Bunga albatta har bir davrning eng ilg'or, ma'rifatparvar insonlari byeqiyos hissa qo'shishgan.

Xalqimizning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari, xulq-atvorga oid xislatlari XI asrda yashab ijod etgan ulug' olim, mutafakkir **Mahmud Qoshg'ariyning «Dyevonu lug'atit turk»** asarlarida kyeng bayon etilgan. Ushbu asarlarda qadimgi turkiy xalqlar tili tarkibiga kirgan so'zlarning arabcha izohli tarjimasi byerilgan. Bu kitobni qadimiy turkiy tilning izohli lug'ati dyeyish mumkin.

«Dyevon»dagi qo'shiqlarda tabiat manzaralari, ov va jang tasvirlari, syevgi-muhabat tuyg'ulari, o'git-nasihatlar o'z ifodasini topgan. Shye'rlarda ilm olishning qadri, bilimli, donishmand kishilarni hurmat qilish, myehmondo'stlik, xushxulqlik, mardlik, jasurlikni targ'ib etuvchi, o'z manfaatini ko'zlagan molparast, baxil, ochko'z, do'stiga va xalqiga xiyonat kabi salbiy tomonlarini qoralaydigan shye'rlar ko'p uchraydi. Bunday shye'rlar turkiy xalqlar qadim-qadimlardan boshlab inson shaxsini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor byerganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, pand-nasihatlarda asosiy o'rinni ilm olishga undash, uning foydalari, ilm ahlini hurmat qilish to'g'risidagi fikrlar egallaydi. Yoshlarni ilmli kishilarga yaqinlashish, ulardan o'gitlar olishni maslahat byeraladi.

«Dyevonu lug'atit turk» asarida xalqning ta'lim-tarbiyaga oid tajribalari ifodalangan maqollar ham mavjud. Maqollarda ham qo'shiqlardagi kabi do'stlik va hamkorlik, myehnatga muhabbat, ilm olishga va kasb-hunar egallashga undash, vatanparvarlik va qon-qarindoshlik tuyg'usi tyejamkorlikning ahamiyati, isrofgarlikning oldini olish, adolat va adolatsizlik, yaxshilik va yomonlikning oqibatlari, xulq-odob qoidalari, sihat-salomatlikni saqlashga oid o'gitlar talqin etiladi.

Dyemak, kishilarni mukammallashtirishga xizmat qiladigan «Dyevonu lug'atit turk» asaridagi shye'riy parchalar, maqollar ezgulikni targ'ib qilgan, insonning kamolga yetishiga katta ta'sir etgan. Ushbu jihatlari bilan Mahmud

Qoshg’ariyning «Dyevonu lug’atit turk» asari bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Yusuf Xos Hojib** O’rta Osiyoning yirik shaharlaridan biri Bolasog’unda tug’ilgan. Uning hayoti haqida batafsil ma’lumot bizgacha yetib kyelmagan. Lyekin u o’zining 1069-1070 yillarda yozgan **«Qutadg’u bilig»** («Saodatga yo’llovchi bilim») asari bilan butun dunyoga ma’lum bo’lgan mutafakkirdir.

«Qutadg’u bilig» ta’lim va tarbiya, ma’naviy kamolotning yo’l-yo’riqlarini, usullarini, chora-tadbirlarini o’zida mujassamlashtirgan, axloq va odobga oid darslikdir. Ushbu asarda mutafakkir o’zining axloqiy-siyosiy va pyedagogik fikrlarini bayon qilgan.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg’u bilig» asarida inson kamoloti masalasi markaziy masala bo’lib hisoblanadi. Mazkur asarda insonning jamiyat va hayotda tutgan o’rni, burch va vazifalari haidagi muammolar o’ziga xos bir tarzda bayon etiladi. Mutafakkir kitobning an’anaviy boshlanmasidan kyeyinroq insonning haqiqiy baxti bilimda ekanini bayon etadi. Yana ilm-zakovatning ahamiyati haqida qator boblarda ham fikr yuritish bilan birga unga alohida boblar ham bag’ishlangan. Lyekin olim faqat ilm-ma’rifatning ahamiyatini ko’rsatibgina qolmaydi, u bilim va zakovatning amaliyotdagi o’rnini ham yoritadi.

Yusuf Xos Hojib bilimni buyuk, o’quvni ulug’ dyeb ta’riflaydi. Chunki zakovatli inson ulug’ bo’ladi, bilimli kishi buyuk bo’ladi, dyeb ilmli kishilarni asl toifadagi kishilarga qo’shadi. Olim ezgu ishlarning barchasi ilm tufayli amalga oshirilishi mumkinligini aytadi. O’sha davrdayoq olim «Bilim hatto osmon sari yo’l ochur», dyeb bashorat qiladi.

Yusuf Xos Hojib olimlarni hurmat etish kyerakligini ta’kidlab, ilm ahlini qadrlasa, ilmsizlarni johil kishilar dyeb biladi. U bilimlilik va bilimsizlikning oqibatlari haqida ham fikr yuritadi. Inson bilimsiz, nodon, johil bo’lsa, yaramas ishlar qilishi, aksincha, bilimli, dono, zukko bo’lsa, ezgu ishlarni ro’yobga chiqarishini ta’riflash bilan kishilarni tinmay ilm olishga undaydi.

Yusuf Xos Hojib insonni kamolga yetkazishning yana bir va eng muhim tomoni uni axloqiy kamol toptirish, dyeb qaraydi. Mutafakkir o’zining axloqiy

qarashlarini, ya’ni ijtimoiy munosabatlar, jamiyatning barcha tabaqalari o’rtasidagi axloqiy munosabatlarni amaliyotga tayangan holda yoritadi. Olim insonning haqiqiy kamolga yetishida aqliy va axloqiy tomondangina emas, balki jismoniy tomondan ham sog’lom bo’lishi kyerakligiga katta e’tibor byeradi.

Yusuf Xos Hojib insonning kamolga yetishining yo’l-yo’riqlari, usullari, chora-tadbirlarini yuksak badiiy mahorat bilan yoritib byeradi. Shuning uchun ham bu asar o’zining ilmiy, ma’rifiy, tarbiyaviy ahamiyatini shu paytgacha saqlab kyelmoqda.

Qoraxoniylar hukmronligi davrida ta’limiy-axloqiy jihatdan eng yuksak sanalgan asarlardan biri **Ahmad Yugnakiyning «Hibatul-haqoyiq»** («Haqiqatlar sovg’asi») asaridir. Mazkur asar mazmuni ham o’z davrining ijtimoiy, siyosiy, diniy, axloqiy, iqtisodiy masalalari tashkil etib, unda o’sh davrdagi ta’limiy-axloqiy asarlarda bo’lgani kabi bilimlilik, adolat, saxovat, muruvvat kabi xislatlar ulug’lanadi, yetuk insonni tarbiyalash g’oyasi ilgari suriladi.

Asar o’n to’rt bobdan iborat. Dostonning dastlabki 4 bobi an’anaga ko’ra muqaddima bo’lib, byeshinchi bobdan asosiy qism boshlanadi. Bu boblarda, asosan bilimning ahamiyati, jaholatning zarari, til odobi, dunyoning foniyligi, saxovat va baxillik, kamtarlik hamda axloqiylikning eng muhim xususiyatlari tarannum etiladi.

Ahmad Yugnakiy o’zining insonni kamolga yetkazish haqidagi qarashlari bilan pyedagogik fikr taraqqiyotida o’z o’rniga ega. U inson kamoloti uchun muhim bo’lgan aqliy va axloqiy qoida va talablarni o’zida mujassamlashtirgan «Hibatul-haqoyiq» asarida komil insonni shakllantirishning o’ziga xos tizimini yaratdi. Bunda u insonni kamolga yetkazishning eng muhim va asosiy myezonlaridan biri – insonning bilimga ega bo’lishi, ya’ni unga aqliy tarbiya byerish dyeb bildi. So’ng ma’naviy-axloqiy kamolga yetkazuvchi so’z odobi, insondagi halollik, rostgo’ylik, saxiylik, kamtarlik, samimiylik, qanoat, chinakam do’st bo’lishni eng muhim insoniy xislatlar sifatida ta’riflaydi va bularga qarama-qarshi bo’lgan jaholat, baxillik, ochko’zlik, yolg’onchilik, takabburlik, zolimlik, shoshqaloqlik kabi millatlarni qoralab, ularning yomon oqibatlarini ko’rsatadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Ahmad Yugnakiyning «Hibatul-haqoyiq» asari xalqni, Ayniqsa, yoshlarni ma'naviy kamolotga yo'llaydi, ijtimoiy hayotdagi kishilar o'rtasidagi ziddiyatlarni ahillik, saxovat, yaxshilik bilan hal etib, ochko'zlik, baxillik, jaholatni ilm-ma'rifat bilan bartaraf etishni da'vat etadi.

«Hibatul-haqoyiq» asaridagi ma'rifiy-tarbiyaviy masalalar yuksak badiiy mahorat bilan ifodalanganligi uchun ham bu asar nyecha asrlardan buyon ham o'z ahamiyatini yo'qotmay kyelmoqda.

**Xo'ja Ahmad Yassaviy** hayoti, vafot etgan yillari haqida turlicha ma'lumotlar mavjud. jumladan, mavlono Xusomidin Sig'noqiy «Xo'ja Ahmad Yassaviy 130 yil umr ko'rgan», dyeb yozadi ayrim ma'lumotlarga qaraganda, u zoti Sharif payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga e'tiqod yuzasidan 63 yoshga kirganda yer tubida, g'orda yashab hayot kyechirganlar. Lyekin u yerda nyecha yil yashaganlari Aniq ma'lum emas. Ammo o'zlarining hikmatlarida yozilishicha, 125 yoshga kirganligi haqida ma'lumot byerilgan. Shu yoshda ham tyetik bo'lib, hikmat misralarini bitgan.

Xo'ja Ahmad Yassaviy taxminan 125-130 yoshlar orasida, ya'ni (1041 yilda tug'ilgan) 1166(67) yilda Yassida olamdan o'tgan. Ulug' bobomiz Jahongir Amir Tyemur 1395-1397 yillarda uning kichik qabri ustiga ulug'vor bino qurdirgan bo'lib, u hamon o'zining salobati, ko'rkamligi bilan ziyoratchilarni o'ziga maftun qilib kyelmoqda.[17,18]

Shoirning Yassaviy taxallusi bilan qoldirgan adabiy myerosi asosan to'rtliklardan iborat. Shuningdyek, uning adabiy myerosida ayrim g'azal va masnaviylar ham mavjud. shoir ijodining g'oyaviy yo'nalishi tasavvufona bo'lib, kishilarni bu dunyoda pok, halol, byeozor, yetim-g'ariblarga myehr-shafqatli bo'lib yashashga da'vat qilishdan iborat. Bu yo'lda insonlar o'zlarini turli nojo'ya yo'llarga boshlovchi nafsni jilovlashga chaqiradilar.

Ahmad Yassaviy Yusuf Hamadoniyga shogird to'shadi va uning ta'limotini rivojlantirib «Yassaviya» tariqatini yaratadi. «Yassaviya» tariqatining barcha aqidalari Ahmad Yassaviyning asosiy asari bo'lmish «Hikmat»da mufassal bayon etilgan. «Hikmat»da o'z ql kuchi, pyeshona tyer iva halol myehnati bilan kun

kyechirish, Alloh taolo visoliga yetishish yo'lida insonni botinan va zohiran har tomonlama takomillashtirish kabi ilg'or umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilgan. Mol-dunyoga, boylikka va davlat orttirishga mukkasidan kyetgan, xasis va ochofat kishilarni Yassaviy byeayov tanqid qiladi.

XI asrning 82–83-yillarida g'arbiy Eron podshohining nabirasi Kaykovus ibn Iskandar o'z o'g'li Gilonshohga bag'ishlab «Nasihatnoma»sini yaratadi va o'sha davr an'anasiga ko'ra uni bobosi podshoh Shamsul-maoliy Qobus sharafiga «Qobusnoma» dyeb ataydi.

«Qobusnoma» 1860 yilda o'sha davrda hali 16 yoshli shahzoda bo'lgan Muhammad Rahimxon Fyeruz (1844-1910) topshirig'i bilan buyuk shoir va mutafakkir Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan birinchi bo'lib o'zbyek tiliga tarjima qilingan.

«Qobusnoma» pand-nasihat tarzida yozilgan bo'lib, mana bir nyecha asrlardan byeri xalqlarni, jumladan yoshlarni ma'naviy hayotga tayyorlashda, ularni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashda muhim qo'llanma bo'lib kyelmoqda.

Kaykovus odamlarning xislatlarini uch xilga bo'ladi: biri aql, biri rostlik, yana biri juvonmardlikdir. U bilim va aqlning ahamiyatini ulug'lar ekan, uni mol-dunyodan ham yuqori qo'yadi.

Asarda yoshlar tarbiyasida – juvonmardlik talablaridan eng muhimi – axloq tarbiyasi, dyeb ko'rsatiladi. U yoshlarda insonga nisbatan insoniy munosabatda bo'lish, adolatlilik, samimiylik, saxiylik kabi xislatlarni tarkib toptirishni istaydi va asarning boshidan oxirigacha ana shu ezgu maqsadini amalga oshirishga harakat qiladi. Ko'rinib turibdiki, Kaykovus qarashlarida inson tarbiyasi omili muhim o'rin tutadi. U axloqlilikning birinchi byelgichi suxandonlik dyeb biladi. U notiqlikda rost so'zlash kyerakligini ta'kidlaydi.

Kaykovusning axloqiy ugitlari kitobda ota-ona haqqini bilish bilan boshlanadi. Unda Kaykovus Qur'on va Hadislardagi talablardan kyelib chiqqan holda o'zining nuqtai nazarlarini bayon qiladi: «O'z farzanding syening haqingda qanday bo'lishini tilasang, syen ham ota-onang haqida shunday bo'lg'il, nyedinkim

syen ta-onang haqida nye ish qilsang, farzanding ham syening haqingda shundoq ish qilur, chunki farzand myevaga, ota-ona daraxtga o'xshaydir».

Kaykovus oilada ota vazifasi va burchiga alohida e'tibor byeradi. Farzand tug'ilganda avvalo unga yaxshi ot qo'yish, undan so'ng aqlli va myehribon murabbiyga topshirish, o'qitish, ulg'aya boshlaganda kasb-hunar o'rgatish, harbiy ish bilan tanishtirish, so'ng suvda suzishni o'rgatish kyerak, dyeydi.

Kaykovus otaning burchi yana o'z farzandiga adab ham o'rgatishda, dyeb ta'kidlaydi. U ilm, hunar va adabni farzandga myeros qoldirish har bir otaning farzandi haqqini bajargani, dyeb hisoblaydi.

Kaykovus otalarning o'z farzandlariga nisbatan qattiqqo'l bo'lishini talab etadi. Lyekin bolalarni jazolashni otaning o'zi emas, murabbiy tomonidan bajarilishini istaydi. Chunki otaning o'z qo'li bilan farzandini jazolashi unda adovat hissini paydo qaladi. Lyekin otadan farzand hayiqib tursin, agar u hayiqmasa, ota-onani xor qiladi, dyeb ta'lim byeradi.

Kaykovusning hayotda xulq-odob qoidalariga qanday amal qilish haqidagi, yoshlarni adolatparvar, insonparvar, saxovatli, qanoatli, muruvvatli bo'lishi haqidagi qarashlari ayniqsa diqqatga sazovor. Ular yaxshilik va yomonlik rtasidagi qarama-qarshilik asosida bayon etiladi.

Kaykovus yuksak axloqiylikning yana bir tarkibiy qismi do'stlik dyeb biladi va do'st tutmoq odobi haqida fikr bayon etar ekan, uning asosiy talablarini talqin etadi.

Asarda jismoniy tarbiyaga ham katta e'tibor byerilga, zyero Kaykovus asarini juvonmardlar tarbiyasiga bag'ishlar ekan, ularning eng avvalo jismonan sog'lom bo'lib kamolga yetishini alohida ta'kidlaydi.

Dyemak, Kaykovusning «Qobusnoma» asari XI asrda yuzaga kyelgan yirik tarbiyaviy asardir. Bunda o'sha davrga xos har bir yosh egallashi zarur bo'lgan aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan bog'liq faoliyat turlari: otda yurish, myerganlik, suvda suzish, harbiy mashqlar san'ati, ifodali o'qish, xattotlik san'ati, shye'r yoza olish, musiqiy bilimga ega bo'lish, shatranj va nard o'yinini bilish kabilar ham o'z ifodasini topgan.

Kaykovusning katta xizmati shundaki, u yoshlarni hayotga tayyorlashda ularni har tomonlama kamolga yetkazishning nazariy masalalarini amaliy faoliyatga tadbiqi nuqtai nazaridan ifodalashi bilan hamma zamonlarda, har qanday tuzumda ham o’z qimmatini yuqotmadi va amaliy hayot dasturi sifatida o’z o’rniga ega bo’ldi.

Muhammad ibn Al-Xorazmiy (783-850). Jahon ilm-ma’rifatining buyuk nomoyondasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy taxminan 783 yilda Xorazmiyda dunyoga kyelib, 847-850 yillar oraligida Bog’dodda vafot etgan.

Xorazmiy tug’ilib voyaga yetayotgan davrda Movarounnahr yirik madaniy va savdo markazlaridan biri edi.

Olimning to’liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy Al-Majusiydir, "Abu-Abdulloh Muhammad " Islomga o’tganlarga byeriladigan an’anaviy ism bo’lgan. Xorazmiyning avlodlari majusiy koxinlaridan, ya’ni "Mug’ullar" dan bo’lib, islomni otasi qabul qilgan bo’lishi kyerak. Ilmiy adabiyotlarida yozilishiga ko’ra Xorazmiy boshlang’ich ma’lumotni o’z uyida olgan, chunki uning otasi qadimiy diniy hamda dunyoviy bilimlardan xabardor bo’lgan. Shu tufayli al-Xorazmiy bolaligidanoq bu ilmiy manbalardan o’rganish imkoniyatiga ega bo’lgan. Muhammad Xorazmiy matyematika bilan juda byerilib shug’ullangan, bu sohaga oid barcha asarlarni qunt bilan o’rgangan, Arab, fors, xind, yunon tillarini ham o’rganib, bu tilda yaratilgana asarlarni ham o’qiy oladigan bo’ladi. Lyekin Xorazmiyning vatanidan chyetda yashaganligini turlicha sharxlashadi. Chunonchi otasi majusiy koxinlardan bo’lganligi uchun ham arab mutassabbilari uni ta’qib qilganligi sababli u Xorazmni tashlab kyetishga majbur bo’lgan, dyegan fikrlar ham mavjud.

Xorazmiyshunos olim A.Axmyedov xalifa Xorun ar-Rashidning o’g’li Ma’mun-ar Rashid Marvda xalifa noibi turganda saroyida juda ko’p olimlarni to’plagan, so’ng xalifa bo’lib ko’tarilgach ularni ham Bog’dodda olib kyetganini ta’kidlaydi.

Biz A.Axmyedovning fikriga qo’shilgan holda yana quyidagilarni ham bayon etmokchimiz.

Buning sabablari **-birinchilardan**, o’sha davrda barcha ilmga intilgan olimlar ma’lum fanlarni egallab olganda so’ng ilm-fan markazlariga safar qilganlar va u yerda yetuk olimlar bilan muloqotda bo’lib, turli fanlar bo’yicha baxs-munozara yuritganlar maxsus tayyorgarlikdan va sinovlardan o’tganlar, o’zlarini fan olamida sinab ko’rganlar. **Ikkinchidan**, xalifalikda ilm markazi sanalgan Damashq va Bog’dodda ilm-fanning taraqqiy etganligi va shaxsan xalifalarning ilm-fan taraqqiyotiga xomiylik qilganligi ham olimlarni jalb etgan.

"Baytul Xikma" da matyematika, gyeodyeziya, gyeografiya falakkiyot va boshqa sohalar bo’yicha tadqiqotlar olib borildi va al-Xorazmiy makzabi yaratiladi. Olimning ayniqsa, matyematikaga oid ilmiy myerosi jahon ahamiyatiga ega bo’ldi.

Xalifa al-Ma’mun xatto Muhammad al-Xorazmiy boshchiligida Xindiston va Rum (Vizantiya) Xazariya (Volganing quyi oqimidagi) gi o’lkaga bir nyecha marta ilmiy safarlar uyushtiradi.

Olim insonning kamolga yetishi va insoniy munosabatlarda ilm-fanning muhimligi g’oyasini ilgari so’rgan holda pyedagogik fikr tarakkiyotida ham munosib urin egallaydi. Xorazmiy matyematika, gyeografiya, gyeodyeziya, falakkiyot sohalarida yirik tadqiqotlar olib borgan. Lyekin u matyematika sohasidagi yangilik yaratgan nazariyotchi hamda pyedagog-uslubiyatchi olim sifatida tarixda qolgan.

"Al-Jabr va muqobala" asari bilan ham matyematika fanini rivojlantirib o’zidan avvalgi bilimlarni o’rgandi va ularni sintyezlashtirish hamda amalda qo’llash usullarini bayen etdi.

Shu asar tufayli "Al-Xorazmiy" nomli lotincha transkripsiyada "Algoritm" shaklini oldi, kyeyinchalik hozirgi zamon hisoblash matyematikasining asosiy tushunchasi algoritm algorifmga aylandi. U matyematikaning nazariy rivojlanishi bilan birga, undan turmushda foydalanish yo’llarini ham byerdi, myeros taqsim qilishda vasiyatnomalarni tuzishda, mol taqsim etishda odamlarga kyerak bo’ladigan amaliy ishlarga zarur bo’lgan hisoblarni taqdim etdi.

Xorazmiyning matyematikaga oid ikkinchi kitobi "Xind arifmyetikasi haqida kitob" ("Hisob al xind")dir. Asar o'nlik tizimi raqamlari (0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9) ga bag'ishlangan.

Xorazmiy xindlarning falakkiyot va matyematikaga oid "Sindixind" nomli qo'llanmasini ukib, uning yangilish va kiyin tomonlarini kayta ishlab yangi boblar qo'shdi va uni "Kiskargan sindixind" ("Algoritm xind hisobi haqida") dyeb atadi. Asar faqat Sharqdagina emas. Yevropada ham qo'llanma sifatida shuxrat taratli. O'nlik tizimining kashf etilishi sanoq tizimida inklobiy uzgarish yasadi va ta'rif byeradilar. Yevropaga o'nlik tizim raqamlaridan foydalanib eng katta sonlarni yozish va joylarni anik kursatish X-XI asrlarda arablardan kirib kyelgan.

Xorazmiy arifmyetikaning algoritmlari bo'lgan kushish, ayrish, ko'paytirish, bo'lish koidalarini yaratgan. Turli "jins" dagi sonlarni ko'paytirish algoritmi ham byergan. Masalan, minut syekundlarni bir-biriga ko'paytirish uchun avvalo, bir xil shaklga kyeltirish ya'ni syekunl yoki minutga aylantirishni ko'rsatgan. Maxsus bobda kasr va mlmizdan chikarish amallarini yozgan.

Xorazmiy o'zining falakkiyotga doir ishlarida xindlarning falakkiyot jadvallarni tahlil etib, "Xorazmiy ziji" nomli bilan mashhur bo'lgan astronomiy jadvallar tuzdi.

Ma'lumotlarga ko'ra VIII-XV asrlarda hammasi bo'lib trigonomyetriya, falakkiyotga oid 100 ga yakin zij - jadval mavjud bo'lgan. Ularning qatoriga boshqa olimlar bilan birga Xorazmiy tuzgan zijlar ham bor.

Xorazmiyning "Sinus ziji"ri asari XII asrda lotin tillari tarjima etilib, bir nyecha asr mobaynida undan foydalanib kyelindi.

